



H.M. ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI

BUYRUQ

2025-yil "19" 12 -son

Toshkent shahri

**Korrupsiyaga qarshi ichki me'yoriy
hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi 2025-yil 126-sonli buyrig'i ijrosini, hamda xalqaro ISO 37301 standarti talablarini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar: - Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutida tuzilgan Maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga;

- "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom" (keyingi o'rinlarda - Nizom) 2-ilovaga;

- H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limining Komplayens Siyosati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish;

tizimda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

3. Belgilasinki:

Mazkur buyruqning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq xodimlarni rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, holislik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida rag'batlantiriladi:

Xodimlar tomonidan o'zlariga nisbatan pora berishni taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

4. H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumotlar joriy yilning 1-noyabridan boshlab to'g'ridan-to'g'ri yoki quyidagi aloqa kanallari orqali berilishi ta'minlanadi:


- bevosita direktorga - 71-209-10-98;
- ishonch telefon orqali - 71-209-11-32;
- elektron pochta orqali - <https://www.ingeo.uz>;
- facebookdagi sahifa orqali [facebook.com/share/RBUWYDz52ZZpKQrM/?mibextid=IOuIew](https://www.facebook.com/share/RBUWYDz52ZZpKQrM/?mibextid=IOuIew);
- telegram messenjeri https://t.me/GGI_rasmiy;
- pochta orqali - 100060, Toshkent sh., M. Ulug'bek tumani, Olimlar ko'chasi, 64 uy;
- ichki nazorat bo'limi (tel.: 90-570-01-43);
- «H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti» DM ning odob-axloq komissiyasi raisi (tel.: 71-209-11-32).

5. H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risida 2024-yil 29-noyabrdagi 109-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha etakchi mutaxassis (A. Axmadaliyev) va Inson resurslarini boshqarish bo'limi (Sh. Zakirov) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirish o'z vaqtida ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosini o'z nazoratimda qoldiraman.

Direktor:



N. Inatov